

Hormang, paxtakorlar!

Ayni kunlarda yurtimiz dalalarida paxta yig'im-terimi mavsumi avj pallaga kirib bormoqda. Ming mashaqqat bilan yetishtirilgan hosilni nes-nobud qilmay yig'ib olish maqsadida terimchilar, ko'ngilli hasharchilar astoydil bel bog'lab mehnat qilishmoqda. Ayniqsa paxta hosilini yig'ib olishda opa-singillarimizning o'rni katta.

Qo'shtepa tumanida ham paxtakorlar paxta hosilini yig'ib olish ishlarini jadal sur'atda olib borishmoqda. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi rahbari D.Xoliqov va madaniyat bo'limi xodimlari "Do'rmon" MMTP hududidagi "Yaxshi niyat" fermer xo'jaligi dalalariga tashrif buyurishdi.

Terimchilarni munosib taqdirlash maqsadida tushlik mahali musiqiy tadbir tashkil etildi. Terimchi opa-singillarimiz Qo'shtepaning xushovoz xonandasini S.Azimovning jonli qo'shiqlaridan baxramand bo'lisdidi.

Tadbir davomida mehmonlar paxtakorlarga xormang, deya terimda eng yuqori natijalarni qayd etayotgan terimchilarga esdalik sovg'alarini topshirdilar. Bunday e'tibordan terimchilar juda mamnun bo'ldilar.











2024-09-26 09:54:51